



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2026



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2026

3-JILD 1-SON



YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

TO'PLAMI

3 - JILD, 1 - SON

2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda abdurauf fitratning “oila” asaridan foydalanish yo‘llari

Ochilova Umida Ramazon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti, pedagogik ta‘lim kafedrası 1-kurs magistranti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada mashhur jadid ma‘rifatchisi Abdurauf Fitratning “Oila” asari asosida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari yoritiladi. Asarda ilgari surilgan g‘oyalar, axloqiy-me‘yoriy qarashlar hamda zamonaviy oila institutining shakllanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada Fitratning oilaviy qadriyatlarga doir fikrlarini bugungi yoshlar tarbiyasiga tadbiq qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, asarning o‘quv jarayonida foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar ham berilgan. Ushbu tadqiqot Fitrat merosining dolzarbligini yana bir bor namoyon etadi va uni ta‘lim-tarbiyada qo‘llash zaruratini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, Oila asari, oilaviy tarbiya, jadid ma‘rifati, axloqiy qadriyatlar, ta‘lim va tarbiya, zamonaviy oila, oila psixologiyasi, tarbiyaviy metodika.

Oila — har bir inson hayotidagi birlamchi tarbiya maskani bo‘lib, unda shaxsning axloqiy, ijtimoiy va madaniy qiyofasi shakllanadi. Bugungi globallashuv davrida yoshlarda oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi pasayib borayotgani haqida fikrlar bildirilyapti. Shu nuqtai nazardan, Abdurauf Fitratning “Oila” asaridagi g‘oyalar talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim manba bo‘la oladi. Fitrat jadidchilik harakatining yetuk namoyandasi sifatida ma‘rifat orqali jamiyatni o‘zgartirish g‘oyasini ilgari surdi. “Oila” asari (1918-yil) o‘z davrining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar, ayol va erkakning jamiyatdagi o‘rni, farzand tarbiyasi, axloqiy me‘yorlar kabi masalalar ko‘tarilgan.

Jadidlarning qarashlari bo‘yicha, oila asosini to‘g‘ri barpo etmasdan va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir oqibatda, millat taqdiri uning oilasining xalokatiga bog‘liqdir. Bu kabi g‘oyalar Fitratning asarlarida o‘z ifodasini topgan. “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millatning oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabatlari kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”, darhaqiqat o‘sha davrdagi ziyolilarimiz ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Fitratning oila asari chuqur va keng bilimlarga asoslanganligi bois, o‘tkir mutahassis sifatida fikrlar yuritadi. Fitrat insonlarga odob-axloqdan saboq berishga, oila tutish qonun-qoidalarini, farzand tarbiyasi masalalari bo‘yicha ko‘plab asarlar yozib o‘sha davrning Beruniysi sifatida etirof etiladi. Islomshunoslik va dunyoviy ilimlardan bohabar bo‘lgan Fitrat asarlarida sotsiolog, huquqshunos, pedagog, va tabib sifatida namayon bo‘ladi. Fitrat tadqiq qilgan masalalar juda keng qamrovli bo‘lib, nima uchun oila qurish kerak fikrlaridan

tortib to ota-ona va farzandlar huquqlaridan , ular o'rtasidagi o'zaro munosabat jihatlarini qamrab olgan.

Tarixiy, ilmiy-nazariy, hayotiy nuqtayi nazardan ahamiyat qaratilganda oilaning ma'naviy poydevorini esa oilaviy milliy, umuminsoniy an'ana, qadriyatlar bilan izohlash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor".

Darvoqe, shu o'rinda, Fitratning "Oila" asarida keltirilgan: "Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimiz lozimki, farzandlarimiz imonli, fidokor bo'lib ulg'ayib, o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz-millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur"— degan fikrlarni qayd etish lozimdir. Oila ma'naviy jihatdan yetuk bo'lsa, uning farovonligi, tinchligi, xotirjamligi ham mustahkam bo'ladi. Talabalarga ushbu asarni tahliliy o'rgatish orqali bir qancha ijobiy xulosalar va fikrlarni rivojlantirsa bo'ladi. Masalan:

- Oila muqaddasligi haqida tushuncha hosil qilish,
- Ayollarga hurmat, erkaklar mas'uliyati haqida ongini shakllantirish,
- Farzand tarbiyasida ota-ona burchini tushunish,
- Oilaviy muammolarni muloqot orqali hal qilishga o'rganish mumkin.

Bu fikrlar bugungi talaba-yoshlarning ongiga singdirilsa, ularning kelajakdagi oilaviy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Fikrlashi yaxshi rivojlangan yoshlarda esa oilaga, ota-onaga, oilaviy munosabatlarga, axloqiy qarashlarga va oila ma'suliyatiga nisbatan dunyoqarash shakllangan bo'ladi.

Fitrat asarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali quidagi jarayonlarga e'tibor qaratish lozim:

- Axloqiy tarbiya fanlari doirasida "Oila" asaridan parchalar asosida tahliliy suhbatlar tashkil qilish;
- Interaktiv mashg'ulotlar (rol o'ynash, muhokama, debatlar) orqali oilaviy rollarni anglash;
- Asarni o'rganish orqali talabalar o'z oilaviy qadriyatlarini tahlil qilishga o'rgatiladi.

Metodik jihatdan bu yondashuvlar yoshlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham oilaga tayyorlaydi. Oilaviy hayotga tayyorlash bizning bugungi kundagi dolzarb vazifalarimizga aylanmoqda. Sababi oila haqida yetarlicha tasavvurning yetishmasligi oqibatida ko'plab oilalar ajrim yoqasiga kelib qolmoqda. Yoshlardagi manaviy qarashlarni berish, oila psixologiyasi, ta'lim va tarbiya masalalarini yoshlar ongiga yetkazish orqali ushbu muammo ilkdiziga bolta urish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning "Oila" asari — o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini

yo'qotmagan bebaho ma'naviy meros namunasi hisoblanadi. Asarda ilgari surilgan axloqiy-me'yoriy g'oyalar, oila institutining mustahkamligi, tarbiya jarayonida erkak va ayolning o'ziga xos mas'uliyatlari, farzand kamoloti uchun yaratilishi kerak bo'lgan sog'lom muhit bugungi kun o'zbek jamiyati uchun ham nihoyatda dolzarbdir.

Talaba-yoshlarning kelajakda barkamol, ma'naviy yetuk, mas'uliyatli ota-ona, turmush o'rtoq sifatida shakllanishida ular bilan oilaviy hayotga oid muhim qadriyatlar, axloqiy tamoyillar asosida ishlash zarur. Fitrat asaridagi fikrlar aynan shu ehtiyojga javob bera oladi. U orqali nafaqat oila tushunchasini kengaytirish, balki yoshlarda oila qurishga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, muammolarni hal qilish madaniyatini tarbiyalash, sog'lom va barqaror ijtimoiy munosabatlar asoslarini o'rgatish mumkin.

Bundan tashqari, Fitratning "Oila" asarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish — faqat adabiy matnni o'rganish emas, balki interaktiv, muloqotga asoslangan, mustaqil fikrlashga undovchi yondashuvlar orqali talabalarning oilaviy savodxonligini oshirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat shaxsiy hayotda, balki jamiyatda ham ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, Fitratning merosi, xususan "Oila" asari, hozirgi ta'lim va tarbiya tizimi uchun ham nazariy, ham amaliy manba bo'lib xizmat qilishi, uni yoshlar bilan ishlashda samarali foydalanish zarurligi muhim ilmiy va ijtimoiy vazifalardan biridir. Ushbu maqolada ilgari surilgan ilmiy-nazariy asoslar va metodik tavsiyalar, shubhasiz, yoshlarni oilaviy hayotga puxta tayyorlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat, A. (1918). *Oila*. Turkiston nashriyoti. 1-bobda oila muqaddasligi va jamiyatdagi o'rni yoritilgan.
2. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // <http://uza.uz/>. – 03.08.2017.
3. A.Fitrat. *Oila yoki oila boshqarish tartiblari*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. - B. 112.
4. Rasulova, G. (2022). "Talabalarda oilaviy madaniyatni shakllantirishda adabiy merosdan foydalanish". *Pedagogika va psixologiya*, №4.
5. G'aniyeva, M. (2019). **Jadidlar merosi va yoshlar tarbiyasi**. Toshkent: Ma'naviyat.